

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 339.92 (510)

KBK: 65.6 (5 KIT)

J - 87

Jumanov Xushnud O‘rol o‘g‘li

**XITOIYNING JAHON GLOBALASHUV JARAYONIDAGI
O‘RNI**

5A 5231001 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik
(mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent **Melibayeva G.A.**

Toshkent– 2018

Himoyaga ruxsat berildi:

Magistratura bo'limi boshlig'i

PhD. G.S. Mutalova

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni va ahamiyatining nazariy asoslari	8
1. Globallashuv jarayonining mohiyati va uning nazariy asoslari.....	8
2. Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarni jahon xo‘jaligidagi ahamiyati.....	12
3. Xitoyning jahon xo‘jaligidagi o‘rni.....	16
I bob bo‘yicha xulosalar.....	24
II bob. Globallashuv jarayonining zamonaviy bosqichida Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining xususiyatlari.....	25
1. Globallashuv jarayonida Xitoy iqtisodiy modelining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar.....	25
2. Xitoyning xalqaro integratsion jarayonlardagi ishtiroki va roli.....	31
3. Xitoyning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari: muammo va yutuqlar.....	41
II bob bo‘yicha xulosalar.....	49
III bob. Globallashuvning yangi bosqichida Xitoyning iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi va asosiy rivojlanish yo‘nalishlari.....	50
1. Globallashuv jarayoni ta‘sirida Xitoy iqtisodiyotining real sektori va tashqi iqtisodiy siyosatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ahamiyati.....	50
2. Xitoy iqtisodiyotining yangi taraqqiyot strategiyasi va uning zamonaviy iqtisodiy yo‘nalishlari.....	56
3. Globallashuv sharoitida Xitoy iqtisodiy taraqqiyot modelining ijobiy jihatlaridan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	65
III bob bo‘yicha xulosalar.....	69
Xulosa.....	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	74

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

2016-yilgacha bo'lgan davrda jahon savdo aylanmasi jahon YaIM hajmimnig o'sishidan ko'ra yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatib kelgan. Jahon iqtisodiyotida jahon savdosiga qatnashmasdan faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar deyarli topilmaydi. Bu o'z navbatida davlatlar iqtisodiyotini bir-biriga chambarchas bog'lanib borayotganligini va ularning birida ro'y bergan iqtisodiy inqiroz yoki o'zgarishlarni boshqalarida aks ettirishini bildiradi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, tobora rivojlanib borayotgan globallashuv jarayoni jahon xo'jaligining eng yirik va qudratli iqtisodlaridan tortib, eng kichiklarigacha ta'sir eta olishini 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi to'liq isbotlab berdi¹. Nafaqat ushbu inqirozdan deyarli talofatsiz o'tgan, balki iqtisodiy o'sish sur'atlarini yuqori ko'rsatkichlarda saqlab tura olgan Xitoy Xalq Respublikasining jahon globallashuv jarayonidagi o'rnini tadqiq qilish, O'zbekiston uchun maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda"², deb belgilab qo'yilgan. Ushbu fikrdan kelib chiqqan holda, Xitoyning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi tajribasi, globallashuv jarayonida uning salbiy oqibatlari samarasini yetarli darajada kamaytira olganini hisobga oladigan bo'lsak, Xitoy iqtisodiyotini nafaqat jahon iqtisodiyotidagi milliy xo'jaliklar faoliyati ichidan eng samaralilaridan biri deb hisoblashimiz,

¹ Huwart, Jean-Yves and Loïc Verdier (2013), "The 2008 financial crisis – A crisis of globalisation?", in Economic Globalisation: Origins and consequences, OECD Publishing, Paris – P – 135. <http://www.oecd-ilibrary.org/economics/economic-globalisation/the-2008-financial-crisis-a-crisis-of-globalisation>

² "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги ПФ – 4947 сон фармони.

balki uning hatto rivojlangan mamlakatlardan ko‘ra ko‘proq tajribaga ega ekanligini bilib olsak bo‘ladi³.

O‘zbekistonda 2016-2017 yillarda jahon hamjamiyati bilan a‘loqalarni yanada kuchaytirish, tashqi savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlikni keng ko‘lamda amalga oshirish borasidagi ishlar hajmi ancha ortdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev xalqaro hamkorlik borasidagi ishlarga baho berar ekan quyidagi fikrni bildirib o‘tgan: “Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta‘minlashdan iborat bo‘lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam, deb bilamiz.”⁴.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik keng yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2017-yilning 2-yanvar kuni O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganiga 25 yil to‘lishi munosabati bilan yo‘llagan tabrigida “Izchil va muttasil rivojlanib borayotgan, jahonda ulkan nufuz va ta’sirga ega Xitoy O‘zbekistonning yaqin va ishonchli hamkoridir. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar mustahkam an’anaviy do‘stlik, o‘zaro anglashuv va hurmat ruhida muntazam rivojlanib bormoqda” deb ta’kidlab o‘tganlar. Bundan tashqari Xitoy 3,5 mlrd. AQSh dollaridan ortiq ko‘rsatkich bilan O‘zbekistonning birinchi raqamli tashqi-iqtisodiy hamkori hisoblanadi⁵.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti jahon globallashuv jarayoni, predmeti esa Xitoyning jahon globallashuv jarayonidagi o‘rni hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Xitoyning jahon globallashuv jarayonidagi o‘rnini o‘rganib chiqish va tahlil qilish, globallashuv jarayonini yangi o‘zgarishlarining Xitoy iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish. Ushbu qo‘yilgan

³ Общество и государство в Китае: XL научная конференция / Ин-т востоковедения РАН. - М.: Ин-т востоковедения РАН, 2010. – 470 с. – (Ученые записки Отдела Китая ИВ РАН. Вып. 2 / редколл. А.А. Бокшанин (пред.) и др.). С. 299-307.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi so‘zlagan nutqidan. <http://press-service.uz/uz/lists/view/1063>

⁵ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2025-tashqi-savdo-statistikasi>

maqsad va vazifalarga erishish uchun, o'z oldimizga quyidagi vazifa va masalalarni qo'ydik:

- Globallashuv tushunchasi va uni Xitoy iqtisodiyotida tutgan o'rnini atroflicha ochib berish;

- Integratsion jarayonlar, xususan ushbu jarayonlarda Xitoyning tutgan o'rnini va globallashuv jarayonidagi integratsiyaning tutgan o'rnini o'rganish;

- Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda Xitoyning tutgan o'rnini o'rganish, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish;

- Jahon globallashuv jarayonida zamonaviy Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining xususiyatlari, muammolari va istiqbollarini o'rganish;

- Globallashuvning yangi bosqichida Xitoyning yangi tashqi iqtisodiy faoliyat strategiyasi yo'nalishlari va uning jahon globallashuv jarayonida tutgan o'rnini va ahamiyatini tadqiq qilish:

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Magistrlik darajasida globallashuv jarayonining zamonaviy xususiyatlari mutlaqo yangi ko'rinishda rivojlanish shaklini olgan sharoitlaridan kelib chiqqan holda Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish yo'nalishlari o'rganildi. Bundan tashqari Xitoy iqtisodiyotida XXI asrning ikkinchi o'n yilligida kuzatila boshlangan nisbatan iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasayishi sabablari tadqiq qilindi, Xitoy iqtisodiyotining kelajakda jahon xo'jaligida yetakchilik mavqeini egallashi istiqbollari zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida ko'rib chiqildi. Globallashuv jarayonining muhim shartlaridan biri bo'lgan boshqaruv o'zgarishi natijalarini Xitoy xo'jalik tizimidagi aksi o'ganildi. Ushbu sharoitlarda O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik istiqbollari ko'rib chiqildi va Xitoy tajribasidan O'zbekiston sharoitlarini hisobga olgan holda qo'llash imkoniyatlari ko'rildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Globallashuv jarayonining obyektiv zaruriyatligini va ushbu jarayonning Xitoy misolida, milliy xo'jalik rivojiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy va ijobiy ta'sirini o'rganish tadqiqotining asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonida faol ishtirok etish orqali milliy xo'jalikni tizimli ravishda rivojlanishini ta'minlash,

ushbu jarayonning ijobiy ta'sirlarini ko'tarish va salbiy natijalarini kamaytirish vositalarini tadqiq etish masalasi ham tadqiqot ishining asoslaridan biri hisoblanadi. Yevropa va Shimoliy Amerikada ro'y berayotgan mintaqaviy integratsiya jarayonlarini Xitoy iqtisodiyotiga ko'rsatadigan ta'siri va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi untegratsion jarayonlarda Xitoyning asosiy tashabbuskor sifatida ishtirokining, uning iqtisodiyotiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijobiy ta'sirlari, Markaziy Osiyo mintaqasida Xitoyning iqtisodiy ta'sirini kuchayishi oqibatlarida O'zbekiston uchun vujudga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy imkoniyatlar va xatarlarni ishlab chiqish asosiy farazlar hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish tebdensiyalari, uning jahon globallashuv jarayonidagi o'rnini o'rganish bilan ko'pgina Xitoy iqtisodchi olimlari shug'ullanib kelishgan. Jumladan, ular qatoriga Xitoy iqtisodiy islohotlari bosh arxitektori Den Syaopinni, Go Kesoni, Xao Szyanxen, Lu Yunsyen, Chjou Veydi, Chjao Xuashen, Van Pey⁶, Zai Li⁷, Su Fenlin, Li Szin Ven⁸, Lyu Goguan⁹, Li Ke¹⁰, va boshqalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga, ular qatorida ushbu muammoni turli qirralarini o'z asarlarida yoritib kelayotgan Rossiya iqtisodchi-xitoyshunos olimlaridan Ya. M. Berger¹¹, R. S. Dzasov¹², A.V.Ostrovskiy¹³, E.F. Avdokushi¹⁴, Ye. P.

⁶ Ван Пей. Экспортный сектор в модели экономического развития КНР: Автореф. дис... канд. экон. наук. – М., 2010.

⁷ Zai Li. & Zhongdong. China's floating population: new evidence from the 2000 census // Population and development review. 2004. – Vol. 30.

⁸ Ли Цзин Вэнь. Анализ и прогнозирование основных проблем экономики современного Китая // Прогнозирование развития КНР: экономика, информатика, внешняя политика и безопасность. /РАН ИДВ.-М., 2000, вып. 9., С. 9-29.

⁹ Лю Гогун. Проблемы урегулирования экономической структуры Китая // Проблемы ДВ - 2001, № 6 Пекин. С. 64-70.

¹⁰ Ли Ке Допустимые диспропорции и системная оптимизация региональной экономики Китая // Проблемы теории и практики управления. 2002, № 1. С. 28-34.

¹¹ Бергер. Я. М. Экономическая стратегия Китая. – М.: Форум, 2009.

¹² Возможен ли национально ориентированный капитализм? Журнал Экономика мегаполисов и регионов №1 (48) июнь 2013

¹³ Островский А.В. Состояние и перспективы строительства экономики КНР // КНР: политика, экономика, культура, Под ред. Титаренко М.Л., М., 2007 г.

¹⁴ Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения учебник. – М.: Юность, 2004 – 368 с.

Bajenov¹⁵, Z. A. Muromseva¹⁶, A.S. Selishev¹⁷, va boshqalarni nomlarini atab o'tish lozimdir.

Undan tashqari, ushbu sohaning nazariy jihatlarini turlicha yondashuvlar orqali O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham o'zlarining bir qator ilmiy monografiya va maqolalarida yoritganlar. Ular jumlasiga: A. V. Vaxobov¹⁸, iqtisod fanlari nomzodlari E. A. Maxmudov¹⁹, G. A. Melibayeva²⁰, B. D. Sadibekovalarni²¹, kiritish mumkindir.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaningning tavsifi. Tadqiqotni olib borish jarayonida empirik, kuzatish, eksperiment, taqqoslash, tavsiflash, analiz, sintez va ekstropolyatsiya metodlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mutaxassisliklar, maxsus kurslar bo'yicha XXRning globallashuv jarayonidagi ishtiroki, xususan jahon bozoridagi o'zgarishlar hisobiga mamlakat savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o'zgarishi va uning istiqbollari Xitoy iqtisodiyoti, Xitoyning tashqi iqtisodiy siyosatining o'ziga xos xususiyatlari fanlari doirasida o'qitilishi va mazkur fan sohalarida maxsus adabiyotlar, metodologik qo'llanmalar yaratish uchun material bo'lib xizmat qiladi. XXRning mintaqaviy integratsiya jarayonlardagi ishtirokini o'rganish Xitoy iqtisodiyotini yanada chuqur o'rganish va o'rganilgan bilim va ko'nikmalar yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qilishiga yordam beradi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot ishi kirish, asosiy qismda 3 ta bob, 9 ta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 82 bet.

¹⁵ Баженов Е.П. Китай и внешний мир – М, 2000 г.

¹⁶ Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. – М.: ИДВ РАН, 2009.

¹⁷ Селищев А.С., Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке. - СПб.: Издательство «Питер». 2004.

¹⁸ Vahobov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik – Toshkent: Baktريا press, 2015. – 584 b.

¹⁹ Махмудов Э.А. Особенности внешнеэкономической стратегии Китая. Т.: 2013.

²⁰ Melibayeva G.A., Gaziyeu F. Sh.. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. // O'quv qo'llanma. Toshkent, 2011.

²¹.Sadibekova B.D Xitoy iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma, – Toshkent 2013 y.

I BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTLARNING JAHON XO‘JALIGIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATINING NAZARIY ASOSLARI

1. Globallashuv jarayonining mohiyati va uning nazariy asoslari

Globallashuv – butun jahon iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiyasi va unifikatsiyasi jarayoni²².

Globallashuv xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy aloqalar tizimi orqali jahon bozorida bir biri bilan bog‘langan va transmilliylashuv, mintaqalashuv asosida yaqin iqtisodiy aloqalarga kirishgan milliy xo‘jaliklardan iborat jahon iqtisodiyotining tarkibiy o‘zgarishlarini o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Yuqoridagi sabablar asosida jahon bozor iqtisodiyoti, geoiqtisodiyoti, uning strukturalari va infrastrukturallari shakllanib boradi va bir necha asrdan buyon jahon bozorining asosiy ishtirokchilari bo‘lgan milliy xo‘jaliklarning suvereniteti buzilishi jarayoni kuchayadi. Globallashuv jarayoni davlat tomonidan bozor tizimining rasmiylashtirilishi (qonuniylashtirilishi) jarayoni oqibati evolutsiyasi hisoblanadi.

Globallashuv jarayoning asosiy sabablari sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tiladi:

- Mehnat taqsimoti;
- Migratsion jarayon;
- Kapital harakati va uni sayyoraviy darajada jamg‘arilishi;
- Qonunchilikning standartlashuvi;
- Madaniy yaqinlik va turli mamlakatlar madaniyatining birlashib ketishi jarayoni.

Globallashuv tizimili hususiyatga ega bo‘lgan obyektiv jarayon hisoblanadi va jamiyatning barcha hayotiy sohalarini qamrab oladi. Globallashuv natijasida jahon iqtisodiyoti subyektlarining bir biriga aloqadorligi va bog‘liqligi toboro ortib boraveradi. Bir vaqtning o‘zida bir necha davlatlarga tegishli bo‘lgan

²² Глебов Г. И., Милаева О. В. Современные международные отношения. Учебное пособие. — Пенза, 2010. — 98 с.

umumiy muammolar ham, o‘zaro integratsiya jarayoniga kirishgan davlatlar ham ko‘payib boraveradi.

1.1.1-rasm. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi²³




1.1.1-rasmda jahon iqtisodiyoti globallashuvi rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu rasm jahon xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlar uchun bozor maydoni sifatida butun dunyo aylanib borayotgani va uning ahamiyati oshib borishining sabablarini ko‘rsatib beradi.

Globallashuv jarayonining paydo bo‘lishi tarixiga oid turli qarashlar mavjud. Tarixchi olimlar globallashuv kapitalizmning yangi bosqichi deb hisoblayadilar. Iqtisodchilar globallashuv jarayoni boshlanishi moliyaviy bozorlarni transmilliylashuvidan boshlangan degan fikrni olg‘a suradilar. Siyosatshunos olimlar demokratik tashkilotlarni butun jahon bo‘ylab yoyilishini globallashuv jarayonining boshlanishi bilan bog‘laydi. Globallashuv jarayonining siyosiy va iqtisodiy turlari farqlanadi. Globallashuv jarayonining subyekti sifatida, iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning qutblarini shakllantirishda asosiy rol o‘ynovchi mintaqalashuv jarayoni olinadi.

Quyidagi rasmda jahon iqtisodiyotining globallashuvi bosqichlari aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

²³ Vahabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. darslik – Toshkent: Baktria press, 2015. – 512 b. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1.1.2-rasm. Jahon iqtisodiyotining globallashuv bosqichlari²⁴



Globallashuv jarayonida eng muhim harakatlantiruvchi kuch bu xalqaro savdo hisoblanadi. Globallashuv atamasi intensiv xalqaro savdo ma'nosida XIX asrning o'rtalaridan boshlab tadqiqotchi olimlar tomonidan qo'llay boshlangan. Globallashuv jarayonining hozirgi ma'nosida ilk bor qo'llagan shaxs Teodor Levit hisoblanadi. U ilk bor ushbu atamani 1981-yillarning boshida qo'llagan. Bunda globallashuv va jahon xo'jaligining globallashuvi tushunchalarini farqlab olish zarur bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ta'rif bilan bir qatorda keyingi ta'rifni ham qollash o'rinli bo'ladi. Globallashuv – bu jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv, transmilliylashuv va baynalminallashuvi jarayoni.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi – bu jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalarning yagona bozorga aylanishi jarayoni²⁵.

Globallashuv milliy va jahon iqtisodiy rivojlanishining beqarorligi va noteksligini kuchaytiradi. Ushbu holat milliy xo'jalik majmualarining global bozor sharoitida samarali faoliyat yurita olmaydigan eksportga yo'naltirilgan

²⁴ O'Rourke, Kevin H.; Williamson, Jeffrey G. (2002). "When Did Globalization Begin?".// European Review of Economic History. 6 (1): 23–50. doi:10.1017/S13614916020000

²⁵ Vahabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik, Toshkent: Baktria press, 2015. – B. 26.

ishlab chiqarish bo'g'inlariga bo'linishi bilan bog'liq. Globallashuvning davlat makroiqtisodiy tartibga solish mexanizmlarini ham sezilarli darajada cheklashi davlatning ichki va tashqi iqtisodiy aloqalariga ta'sir ko'rsatishining an'anaviy iqtisodiy dastaklarini o'zgartirib yuboradi. Bundan tashqari globallashuvning ishlab chiqarish va iste'molda salbiy tashqi omillarini ommaviy tarqalishidagi ham ishtirokini alohida ta'kidlab o'tish lozim. TMKlarning global bozorlarga chiqishi va bu jarayondan foyda olishga intilishi borasidagi kuchli raqobat muhiti ularni atrofga va jamiyatga zarar keltiruvchi ishlab chiqarish harajatlarini kamytirishga qaror qilishga olib kelishi mumkin. Bunda TMKlar atrofni muhitni kuchli ifloslantiruvchi va transgen mahsulotlardan foydalaishini misol tariqasida keltira olamiz.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi omillari bir qancha va ularni sohalar bo'yicha guruhlanishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi;

Texnologik;

- Transport sohasi taraqqiyoti va uning natijasida masofaning "qisqarishi";
- Telekommunikatsion texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot.

Iqtisodiy;

- Ishlab chiqarishning globallashuvi;
- Jahon savdosining globallashuvi.

Siyosiy;

- Jahon sotsialistik tizimining qulashi, mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tishi;
- Chegaralarning shaffofligi – qator hududlarda pasport tizimining bekor qilinishi.

Ijtimoiy;

- Odatlar, did va xulqning birxillashishi;
- Milliy an'analarning kuchsizlanishi;
- Patriarxal oilaviy aloqalarning yo'qolishi.

Xalqaro;

- Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar mavqeyining kuchayishi;
- Standartlashtirish va markazlashishning kuchayishi (inkoterms, Xalqaro standartlar).

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni unga teskari jarayon – iqtisodiy faoliyatning hududiy integratsiyalashuvi jarayoni bilan birgalikda kechmoqda. Ushbu jarayon cheklangan miqyosda, tovarlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatiga asoslangan mamlakatlar guruhini qamrab oladi.

Hududiy integratsiyalashuv bir tomondan turli mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan birlashish jarayonini rag‘batlantirsa, ikkinchi tomondan alohida iqtisodiy guruhlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik va raqobatni kuchaytirish orqali jahon iqtisodiyotini globallashuv jarayonini sekinlashtiradi.

Globallashuv jarayoni iqtisodiy faoliyatni liberallashtirishni – xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya operatsiyalariga qo‘yiladigan cheklovlarni qisqartirish yoki bartaraf etishni taqozo qiladi. Shu bilan bog‘liq holda globallashuv va liberallashtirish bitta jarayonning ikki tomoni hisoblanadi, ular o‘rtasidagi qarama-qarshilikni aks ettiradi. Globallashuv jarayoni ichida turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, turli xo‘jalik sohalari, sanoat va moliya guruhlari, tarmoqlar va mamlakatlarning manfaatlari to‘qnash keladi.

.....

XULOSA

Jahonda hozirgi vaqtda globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari ta'siri ostida alohida milliy xo'jaliklarning ahamiyati toboro kamayib integratsion tashkilotlar va boshqa xalqaro uyushmalarning ahamiyati toboro kengayib bormoqda. Jahon bozoridagi narxlar dinamikasi ham kam o'zgaruvchanlik xususiyatini yo'qota boshlagan. Bu esa milliy xo'jaliklarga o'z iqtisodiyotini tez sur'atlarda diversifikatsiya qilishini va jahon bozoridagi o'zgarishlarga tayyor turishini taqozo etmoqda.

Yuqoridagi omillar natijasida Xitoyda hozir chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni talab qiluvchi holat shakllangan. Ushbu holatga ko'ra Xitoy o'zidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga keng imkoniyatlar yaratib berishi, globallashuv va jahon bozoriga integratsiyalashuv jarayonlarini yanada chuqurlashishiga, o'z eksport hajmini faqatgina boshqa davlatlar hisobiga kengaytirish yo'lidan asta-sekin voz kechgani holda ichki bozorini kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni hamda ushbu loyihalarni amaliyotga tadbiq etishni boshlab yuborgan.

Xitoy hozirgi vaqtda nafaqat dunyoning birinchi raqamli eksportyor davlati, balki ekologik muammolar va u tufayli yerni, atrof muhitni zararlash bo'yicha ham sayyorada yetakchilik maqomida. Xitoy ekologik muammolar tufayli kasallanishga uchragan insonlar soni bo'yicha ham dunyoning barcha davlatlaridan oldinda. Hukumat tomonidan ekologiyani yanada zararlanishini oldini olishga qaratilgan dasturlar hozircha o'z vazifasini to'liq ravishda bajargani yo'q. Hukumat tomonidan energiya iste'moli uchun tariflarni sun'iy ravishda past narxlarda ushlab turilishi energiya ishlab chiqaruvchilar va undan foydalanuvchilar uchun yoqilg'ining yangi manbalarini yaratishga rag'batni kuchsizlantirmoqda. Xitoy o'zidagi ishchi kuchi arzonligi va ekologik talablarni boshqa davlatlardagiga nisbatan ancha yumshoq bo'lganligi bilan investorlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Lekin hozirgi kunga kelib Xitoyda ishchi kuchi arzonligi omili asta-sekin o'z jozibadorligini yo'qotib bormoqda. Shu bilan birga Xitoyning markaziy va g'arbiy iqtisodiy mintaqalarida ish haqining arzonligi

saqlanib turibdi. Lekin bu omil ham ushbu mintaqalarni xorij investorlari uchun jozibadorligini oshirgani yo‘q. Mintaqalarni iqtisodiy jihatdan rivojlanganlik darajasi nomutanosibligini oldini olish maqsadida Xitoy hukumati nisbatan kam rivojlangan hududlarga hukumatni investitsion loyohalarini joylashtirishni boshlab yuborgan. Loyihalardan tashqari ushbu hududda faoliyat olib boruvchi tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va boshqa turdagi majburiy to‘lovlarni kamaytirishga qaratilgan siyosat olib borilmoqda.

Xitoy eksport hajmini yuqori ko‘rsatkichlarda ushlab turishi uchun mamlakatdagi boshqa valyuta taklifi oqibatida yuan kursini qimmatlashishini oldini olish maqsadida eksport orqali kirib kelgan katta miqdordagi valyutani 2010-yilgacha AQSH va boshqa rivojlangan davlatlar iqtisodiga qayta investitsiya qilar edi. Bu esa ayrim iqtisodchi olimlarda 2008-yilda boshlangan butun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sabablaridan biri bo‘ldi degan farazlarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Chunki 2000-yillardan boshlab Xitoy AQSH ning yirik kreditorlaridan biriga aylandi. 2001-yil “.com” axborot texnologiyalari bozori aksiyalari narxlari keskin tushib ketgach Xitoy AQSHning ipoteka bozoriga katta miqdordagi investitsiyalarni kirita boshladi, natija 2008-yilda ro‘y bergan butun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi.

Albatta bu holat yuzasidan Xitoyni to‘g‘ridan to‘g‘ri ayblay olmaymiz. Balki Xitoy uchun bu vaqtda eksportdan tushgan katta miqdordagi valyutani o‘z iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga sarfalagani yuqoridagi holatdan ko‘ra ancha yaxshi bo‘lar edi deb ayta olamiz.

Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar tomonidan Xitoy hukumati ilgari surgan uzoq muddatli investitsion loyihalarni rad etilishi oqibatida Xitoy o‘zi ShHT, BRIKS va mintaqaviy doirada xalqaro moliyaviy tashkilotlarni tuza boshladi.

Faqatgina Osiyo infrastrukturaviy investitsiyalar banki hozirgi kunda Yevropa va Osiyodagi 57 ta davlatni o‘z azoligiga qabul qilib ulgurdi. O‘zbekiston Respublikasi ham 2014-yilning 24-oktyabrida bank azoliga o‘tish to‘g‘risidagi memorandumga imzo chekdi.

BRIKS doirasida tashkil etilgan Yangi taraqqiyot banki ham xalqaro moliya tashkiloti maqomiga ega hisoblanadi. Ushbu bank ham asosan azo davlatlarga infrastrukturani rivojlantirishga qaratilgan loyihalarga moliyaviy resurslarni uzoq muddatga va imtiyozli shartlarda yetkazib beradi.

Osiyo infrastrukturaviy investitsiyalar bankining a'ziligiga Tayvan tomonidan berilgan ariza Xitoy tomonidan sababi ko'rsatilmagani holda rad etilgani va ushbu arizada Tayvan "Xitoy Taypeyi" nomi ostida gavdalanganiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xitoyni o'zi tomonidan tashkil qilgan xalqaro moliya institutidan siyosiy maqsadlarda foydalanayotganiga guvoh bo'lamiz.

Globalashuvning butun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi rivojlanish yo'nalishlarida Xitoy o'zining yangi iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishini belgilab oldi. Ushbu yo'nalishlar Xitoy hukumati tomonidan bir qancha loyihalar bilan qo'llab-quvvatlana boshlandi. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi ham shu kabi global miqyosda tashkil etilayotgan xalqaro moliyaviy institutlar bilan birgalikda Xitoyning, kamida mintaqadagi iqtisodiy ta'siri va qudratini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yildan yilga kengayib bormoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi strategik qulay joylashuvidan foydalangani holda Xitoy bilan ikki tomonlama foydali savdo va investitsion hamkorlikni kuchaytirib bormoqda. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik shartnomalarida asosan yuqori texnologik sohalarga oidlari soni borgan sari ko'payish tendensiyasini namoyon etadi. Albatta bu O'zbekiston iqtisodiyoti uchun foydalidir. Xitoyning Afrika qit'asidagi investitsion loyihalarida asosan ushbu mintaqa xom-ashyosi va tabiiy resurslarini o'zlashtirilganiga e'tibor qaratadigan bo'lsak Xitoy uchun ham O'zbekiston nafaqat uning iqtisodiyoti uchun xom-ashyo manbai emas, balki mintaqadagi muhim strategik sheriklardan biri ekanligiga amin bo'lamiz. Bundan tashqari amaliyotga tadbiiq etilishi boshlab yuborilgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining ham quruqlikdagi qismida, ham dengiz yo'lida O'zbekiston janubiy-sharqiy yo'nalishda strategik qulay nuqtada joylashgani O'zbekistonga

kiritilishi mumkin bo'lgan, infrastrukturani yaxshilashga qaratilgan imtiyozli kreditlar uchun yo'l ochib beradi. Globallashtirish jarayoniga kirishda Xitoy tomonidan xorij investitsiyalarini jalb qilishga qaratilgan siyosat ham O'zbekiston uchun foydali. Bundan tashqari Xitoy tomonidan amalga oshirilayotgan va xo'jalik yurituvchi subyektlar va mahalliy boshqaruv organlari mustaqilligini oshirishga qaratilgan islohotlar ham markaziy byudjetga tushadigan bosimni kamaytirib, uning iqtisod qilingan qismini ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan davlat dasturlariga sarflashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi “Boj tarifi to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni. 1996-yil 25-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilga mo‘ljallangan investision dasturi to‘g‘risida”gi 1455-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

7. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016 – 56 b.
8. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017 – 48 b.

9. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017 – 104 b.

IV. Ilmiy adabiyotlar

O'zbek tilida

10. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009 – 148 b.

11. Mahmudov E.R. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. – Toshkent.: – 2011. – 328 b.

12. Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. – Toshkent: JIDU, 2011. – 120 b.

13. Vahabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik - Toshkent: Baktria press, 2015. – 584 b.

14. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.B. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: MChJ – RAM-S, 2007. – 268 b.

15. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Azimov A.E., Nazarova R.R. — Xalqaro iqtisodiy integratsiya – Toshkent.: 2009. – 268 b.

16. Sodiqov Z.R. Milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuv tendensiyalari. – Toshkent: TIU, 2011. – 91 b.

17. Sadibekova B.D. Osiyo Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlarida ijtimoiy iqtisodiy siyosat. – Toshkent, 2013. – 126 b.

18. Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti. – Toshkent, - 2011 – 104 b.

19. Shodiyev R.H., Mahmudov E.R. Jahon Iqtisodiyoti. – Toshkent: – 2006 – 435 b.

20. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent, 2013. – 226 b.

21. O‘lmasov A. Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi, – Toshkent, 2006. – 134 b.

22 To‘xliyev N.T.O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 1998. – 245 b.

23. Тўхлиев Н., Ҳақбердиев Қ.Қ., Эрмаматов Ш., Холматов Н.Б. Иқтисодий билим асослари. – Toshkent, 2003. – 98 б

Rus tilida

24. Буторина О.В. Региональная интеграция: основные понятия// Европейская интеграция:/ под ред О.В. Буториной – Москва, 2011. – 321 с.

25. Бернард Х., Морис Ш., Юничи Г. Выгоды региональной интеграции. – Москва, 2000. – 208 с.

26. Васильев Л.Е. АСЕАН в начале XXI века. Актуальные проблемы и преспективы. – Москва: ФОРУМ, 2010. – 368 с.

27. Гончаров И.В. Оргаиизациоино-экономические принцнны формирования механизма развития промышленности стран ЮВА в условиях региональной интеграции. – Санкт-Петербург, 2007. – 194 с.

28. Далимов Р.Т., Махамбетова З., Худякова Н.К. Международная экономическая интеграция. – Ташкент, 2004. – 240 с.

29. Дынкин А.А., Н.П. Шмелев. Мировая экономика и международные экономические отношения. – Москва: ИНФРА-М, 2013. – 654 с.

30. Исполнительный комитет СНГ. Основные интеграционные объединения мира: цели и преспективы развития. – Москва, 2014. – 421 с.

31. Жуджунь Д., Ковалев М.М., Новик В.В. Феномен экономического развития Китая. Москва: Издательский центр БГУ, 2008. – 446 с.

32. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: - Москва: ИНФРА-М, 2008. – 474 с.

33. Ломакин В.К. Мировая экономика / В.К. Ломакин. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.

34. Мелибаева Г.А. Экономическое сотрудничество Китая со странами Центральной Азии. – Ташкент, 2010. – 154 с.
35. Махмудов Э.Р. Мировая экономика: современные экономические системы. – Ташкент, 2004 – 264с.
36. Михеев В. Восточно Азиатское Сообщество Китайский фактор и выводы для России – Москва, 2004. – 230 с.
37. Мишина С.И. Стратегия КНР в интеграционных процессах в АТР: Автореф. дисс. кандит. полт. наук. Москва, 2012. – 260 с.
38. Орман А.А. Китайская Народная Республика. – Алматы, 2006. – 712 с.
39. Полякова В.В. Мировая экономика и международный бизнес. Москва: КНОРУС, – 2008.-688 с.
40. Рибалкин В.Е. Международные экономические отношения Москва – 2005. 214 с.
41. Селищев А.С., Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке. – СПб: Питерб – 2004. – 240 с.
42. Сергун И.П. Перспективы участия России в интеграционных процессах в Юго-Восточной Азии: на примере опыта создания зоны свободной торговли Китай – АСЕАН. Саратов: – 2013. – 236 с.
43. Сеницын А.Ю. АСЕАН в политике РФ и США. Москва: – 2014. – 151 с.
44. Уиткомб. В. Современный Китай / Ванесса Лайд Уиткомб, Майкл Бенсон: пер. с англ. И.В. Павловой. – Москва: Астрел. – 2006. – 318 с
45. Усов В.Н. История КНР. учебник / Москва: – 2006, – С 812.
46. Титаренко М.Л. Россия и ее азиатские партнеры в глобализирующемся мире. Стратегическое сотрудничество: проблемы и перспективы. М.Л.Титаренко. — Москва: ИД ФОРУМ, — 2012. — 544 с.
47. Шенкер О. Китай: век 21. Развитие Китая, его влияния на мировую экономику и геополитическое равновесие. Днепропетровск: – Баланс Бизнес Букс — 2005. — 318 с.

48. Энциклопедия Нового Китая, Москва – 1996. – 512 с.

Ingliz tilida

49. Economic and Social Survey of Asia and the Pacific. – New York, 2014. – 299 p.

50. Ozawa T. The rise of Asia. The “flying geese” theory of tandem growth and regional agglomeration. – Cheltenham (UK), Northampton (MA, USA): Edward Elgar, 2016. – 124 p.

51. Hands across the Strait. Shameen Assif. Bus. Week – Eur. Ed, 2015. – №6 -13 Sept. – 151 p.

52. Huwart, Jean-Yves and Loïc Verdier. The 2008 financial crisis – A crisis of globalisation?, in Economic Globalisation: Origins and consequences OECD Paris:, 2013. – 135 p. <http://www.oecd-ilibrary.org/economics/economic-globalisation/the-2008-financial-crisis-a-crisis-of-globalisation>

53. Balassa B. The Theory of Economic Integration – London: Allen & Unwin, 1961/2012 – 450 p.

54. Carlsen A. China’s Economic Growth 1978–2025: What We Know Today About China’s Economic Growth Tomorrow. World Development. – Elsevier Ltd, 2008. – No. 103. – 245 p.

55. Ignatius I., Krishnamurti I. The Political-Economy of ASEAN-China Indonesia:, FTA. – University of Pelita Harapan, Karawaci, 2014. – 231 p.

56. Sergun I. P. ASEAN+3: Key Positions of Cooperation and Prospects of Development 174 p.

57. Severino, Rodolfo C. Southeast Asia in search of an ASEAN community. – Singapore:, Institute of Southeast Asian Studies, 2006. – 450 p.

V. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

O‘zbek tilida

58. Мелибаева Г.А., Рахманов Б.Б. Современное состояние торгово-экономических отношений между Республикой Узбекистан и КНР. – Ташкент: Международные отношения, 2013. – № 3. 444 с.

59. Вердиева Н.Е. Экономическое сотрудничество как составная часть ШОС // Global iqtisodiy inqiroz va inqirozdan keyingi davrda milliy iqtisodiyotlar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari. – Toshkent, 2010. – № 54. Б. 134-138.

60. Либман А.М. Устойчивый размер региональных интеграционных проектов и постсоветское пространство // Евразийская экономическая интеграция. – М.: 2008. – №1. – С. 26-32.

61. Лицарева Е. Ю. АСЕАН и проект Восточноазиатское сообщество // Политология. Религиоведение. – ТомГУ, 2014. – № 7. – С. 36-43.

62. Алиджанова О.Т. Жаҳон иқтисодиёти глобаллашуви шароитида интеграцион жараёнлар (ОТИХ мисолида) // Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимида интеграциялашувининг долзарб масалалари – Тошкент, 2013. – № 9. Б.39-42.

63. Петрунина Ж.В. Экономическое взаимодействие Китая и стран АСЕАН в XXI в. Россия и АТР – Москва:, 2012 – № 1. – С 2-5.

64. Рахман М.С. Развитие внешнеэкономической деятельности стран – членов интеграционного объединения АСЕАН // –БІЗНЕСІНФОРМ – Киев, 2012. № 3. С. 87-92.

65. Садибекова Б.Д. Ўзбекистон ва Хитой савдо–иқтисодий алоқаларининг ривожланиш тенденциялари Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимида интеграциялашувининг долзарб масалалари – Тошкент, 2013. – № 11, – Б. 106-110.

66. Сергун И.П. Вьетнам в экономической интеграции АФТА и КАФТА // Экономика – Краснодар, 2011. – № 2. – С. 146-152.

67. Турсунов Б.М. Вопросы финансового регионализма в восточноазиатской экономической интеграции // Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимида

интеграциялашувининг долзарб масалалари – Тошкент, 2013. – №12 –Б. 16-28.

68. Фу Минсин. Отношения добрососедства и открытости // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2009. № 5, – С 3-4.

69. Чзун Хегао Что значит 7,4 % // Китай М:, 2015. – № 2, – С. 303.

70. Холматов Н.Б. Тенг манфаатли ҳамкорликни ривожлантириш орқали халқаро бозорга интеграциялашиш масалалари // Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимига интеграциялашувининг долзарб масалалари – Тошкент, 2013. – Б. 134-138.

71. Ю. Шан // Мы надеемся на прекрасное будущее Китая Пекин, 2011. – № 3. – С. 11–12.

72. Юсупов Н. Некоторые фактори экономического роста Китая // Экономическое обозрение – Ташкент, 2012. – №7. – С. 8-14.

73. Ю. Шан Стабильный рост экономики Китая. Пекин, – 2014. – № 3. С. 280-289.

74. Koldunova E. The Asia-Pacific Regional Institutions: Stalemate or Transformation? // Moscow State Institute of International Relations, the MFA of Russia (MGIMO – University) – Moscow:, 2013. – P. 10-17.

75. Dilip K. Das China's Contribution to Recent Convergence and Integration among the Asian Economies // Journal of East Asian Economic Integration Vol. 17, No. 1– 2013. 55-79 p.

VI. Internet saytlar

76. <http://www.lex.uz/> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)

77. <https://stat.uz/uz/> (O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti)

78. <http://www.stats.gov.cn/> (XXR milliy statistika byurosi rasmiy sayti)

79. <http://www.imf.org/> (Xalqaro valyuta fondi veb sayti)

80. <https://www.wto.org/> (Jahon savdo tashkiloti veb sayti)

81. <http://www.worldbank.org/> (Jahon banki guruhi veb sayti)

82. <https://ru.sputniknews-uz.com/> (“Sputnik” yangiliklar agentligi veb sayti)
83. <http://www.xinhuanet.com/english/> (ingliz tilidagi “Sinxua” XXR hukumatining rasmiy axborot agentligi veb sayti)
84. <http://russian.people.com.cn/> (rus tilidagi “Sinxua” XXR hukumatining rasmiy axborot agentligi veb sayti)
85. <http://gregmankiw.blogspot.com/> (Harvard universiteti iqtisod proffessori Greg Mankivning internet blogi)
86. <http://www.polit.ru/> (polit.ru axborot portal veb sayti)
87. <https://www.wsj.com/> (“The Wall Street Journal” jurnali veb sayti)
88. <http://english.customs.gov.cn/> (ingliz tilidagi XXR bojxona xizmati rasmiy veb sayti)
89. <https://www.ndb.int/> (Yangi taraqqiyot banki rasmiy veb sayti)
90. <https://www.aiib.org/> (Osiyo infrastrukturaviy investitsiyalar banki rasmiy veb sayti)
91. <https://www.telegraph.co.uk/> (Buyuk Britaniya “The Telegraph” axborot agentligi veb sayti)
92. <https://www.asiapacific.ca/> (Kanadaning Osiyo Tinch Okeani fondi veb sayti)
93. <http://fortune.com/> (“Fortune” jurnali veb sayti)
94. <https://www.bp.com/> (“British petroleum” Buyuk Britaniya neft va gaz kompaniyasi rasmiy veb sayti)